

## O‘ZBEKISTONNING MAHALLIY MUSIQA USLUBLARINI O‘RGATISHDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING AHAMIYATI

*Karimov Jahongir Tohirjon o‘g‘li*

*Namangan davlat pedagogika institute Musiqa ta‘limi va san‘at yo‘nalishi magistratura 1-kurstalabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonning mahalliy musiqa uslublarini o‘rgatishda individual yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olib, ularga yanada samarali bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqotda individual yondashuvning usullari, afzalliklari va natijalari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** mahalliy musiqa, individual yondashuv, musiqa ta‘limi, O‘zbekiston, uslublar.

O‘zbekistonning boy madaniy merosi mahalliy musiqa uslublarining xilma-xilligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu musiqiy an‘analar xalqimizning ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutadi. Mahalliy musiqa uslublarini o‘rgatish jarayonida individual yondashuv qo‘llanilishi ta‘lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada mahalliy musiqa uslublarini o‘rgatishda individual yondashuvning ahamiyati, uning usullari va natijalari yoritiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Adabiyotlarni o‘rganish: Mahalliy musiqa uslublari va ta‘limda individual yondashuv bo‘yicha mavjud manbalar tahlil qilindi.

So‘rovnoma va intervyu: Musiqa o‘qituvchilari va talabalari bilan suhbatlar o‘tkazilib, ularning tajribasi va fikrlari o‘rganildi.

Eksperimental yondashuv: Ta‘lim jarayonida individual yondashuvning samaradorligini aniqlash uchun tajriba o‘tkazildi.

O‘zbek xalqining musiqiy merosida asosan, 4ta mahalliy uslub mavjud bo‘lib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi
  2. Buxoro-Samarqand musiqa uslubi
  3. Xorazm musiqiy uslubi
  4. Farg‘ona- Toshkent musiqa uslubi.
- Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi.

O‘zbekistonning janubiy viloyatlari Surxondaryo-Qashqadaryo aholisining katta qismi respublikaning boshqa viloyatlaridan farqli ravishda, o‘tmishda asosan, chorvachilik, ayrim qismigina dehqonchilik bilan shug‘ullanib hayot kechirar edi. Bu viloyatlar musiqa folkloridan chorvadorlar mehnati haqidagi ko‘chmanchilik hayoti

haqidagi qo‘shiqlarning xarakteri o‘rin egallashi ham ana shundadir. Bu viloyatlar musiqa hayotida doston ijrochilari, yani baxshi shoirlar ham muhim o‘rin tutgan. Surxondaryo-Qashqadaryo an‘anaviy musiqa cholg‘ulari O‘lkada musiqa cholg‘ulari uzoq tarixiy o‘tmishdan buyon mahalliy xalq tomonidan mexr qo‘yilib, ardoqlanib, ijro etib kelinayotgan so‘zlar bo‘lib, ular do‘mbira chanqobuz, doira, qo‘biz, nay yoki g‘ajir nay, sibiziq ( sibizg‘a) kabilardir. Do‘mbira sozi ikki torli chertma cholg‘udir. Bu cholg‘u Surxondaryo- Qashqadaryo mahalliy musiqasida keng tarqalgan sozlardan bo‘lib, u baxshi shoirlar va cho‘ponlar zavq bilan sevib ijro etiladi.

Chanqobuz esa maxsus tilchali asbob bo‘lib, u temir yoki suyakdan tayyorlanadi. Temir chanqobuz odatda, aylana shaklda bo‘ladi. Uning o‘rtasidan 7-9 sm uzunlikda po‘lat til o‘tkaziladi. Chanqobuzni chalish uchun uni chap qo‘l bilan tishlarga bosib turish kerak va ayni vaqtda, o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i ta‘sirida tilchani to‘lqinlantirib turish lozim. Bu cholg‘uni nafaqat, kattalar, balki bolalar ham sevib ijro etishadi.

#### Buxoro-Samarqand musiqiy uslublari

Surxondaryo va Qashqadaryodan farqli o‘laroq, Markaziy Osiyoning madaniyat markazi bo‘lgan Buxoro va Samarqandda o‘zbek musiqa san‘atining xususiyatlari deyarli boshqachadir. Bu xususiyatlar meros mavzusiga va janrlari hamda musiqa hayoti xarakteriga ta‘aluqlidir. Buxoro va Samarqand mahalliy uslubi xususiyatlarining muhim farqi musiqa merosi va ijrochilining ikki turga: og‘zaki an‘anadagi professional san‘at va folklor turlariga bo‘linishidadir. Musiqa folklorining mohir namoyondalari bilan bir qatorda bu yerda professional san‘atkorlar, sozanda va xofizlar katta o‘rin tutib, ular maqom va boshqa professional musiqa janrlarining bilimdon ijrochilari sifatida tanilgan. Kichik shakldagi ma‘lum turkumni tashkil etuvchi xilma-xil mazmunga ega bo‘lgan raqs o‘yin qo‘shiqlarining ijrochilari sozandalar ham keng e‘tibor topgan. Bu qadimiy shaharlarda cholg‘u asboblari turlarining boyligi marosim qo‘shiq-kuylarining xilma-xil va xarakterli bo‘lishi, bilan birga eng yaxshi ijrochi xonanda va sozandalar ishtirokida musiqa va she‘riyat kechalarining muntazam o‘tkazilib turilishi ham odat bo‘lgan edi. Maishat, turmush tarzidagi ashulachilar, raqqos va raqqosalar hamda sozandalar ansambllarining o‘ziga xos tuzda keng rivojlanishiga ham imkon bergan.

Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi o‘zbek musiqa folklori esa ko‘p jihatdan tojik musiqasi bilan ma‘lum darajada umumiylikka ega bo‘lib, tarixiy taqdiri deyarli o‘shash bo‘lgan xar ikkala qardosh xalq o‘zbeklar va tojiklarning barobar darajadagi musiqa merosidir. Jumladan, “Shashmaqom” bunga yoqrin misol bo‘la oladi. Buxoro musiqa uslubida erkaklar tomonidan ijro etiladigan “Mavrigi” nomi bilan ma‘lum bo‘lgan turkumli aytimlar esa doira jo‘rligida hamda raqqos o‘yinchi ishtirokida ijro etiladi. “Mavrigi” asosan erkaklar tomonidan aytilib, xonandalar bir vaqtning o‘zida ham ashula aytib, ham doira chertib, o‘zlaricha jo‘r bo‘ladilar. “Mavrigi” aytimlarda

ikki-tillik an'anasi namoyon bo'ladi, ya'ni turkumdagi ashula qismlari o'zbek va tojik tillarida kuylanadi.

"Mavrigi" ijrosida ikki va undan ortiq qismlar bo'lib, ular birin-ketin ijro etiladi. Dastlabki, qizim vazminroq ruhda bo'lgan "kirish" vazifasini bajaradi. Keyingi qismlarga o'tilgani sari o'ynoqi ritmlar kengayib, o'yin aytimlari jadallashib boradi. Shu sababdan ham bunday turkumlarda raqs usullari asosiy o'rinni egallaydi. Samarqand musiqa uslubida "qarsak" bilan ma'lum qo'shiq-raqsar juda keng o'rin tutadi. Qarsak, turli xil tomosha va davralarda ko'pchilik tomonidan ijro etiladi. Bunday davrada hozir bo'lganlar aylana shaklida o'tirishib, yakkaxonning aytimi va raqsiga qarsak bilan jo'r bo'lganlar aylana shaklida o'tirishib, yakkaxonning aytimiga jo'r bo'lib o'tirishadi. Shu boisdan qarsak janri band-naqorat shaklida bo'lib, bandlarni yakkaxon (aytimchi) aytadi, davrada o'tirganlar esa naqoratlarini kuylashadi. Qarsak o'yin-aytimlarning bir nechta turlari mavjud. Jumladan, qars, yakka qars, qo'sh qars, uch qars, besh qars kabi nomlar bilan ataluvchi qarsak turlari mavjud. Xorazm musiqiy uslublari Xorazm o'lkasining mahalliy uslubi, avvalo o'zining musiqiy koloridi bilan ajralib turadi. U mahalliy qo'shiqlar intonatsion-kuy tuzilishi hamda talqiniga o'z ta'sirini ko'rstadi. Xorazm uslubining Turkman va ozarbayjon musiqasi bilan ma'lum darajada yaqin erkinligi ham shubhasizdir.

Xorazm xalq musiqasining o'ziga xos mahalliy xususiyatlari dostonlar ijrosi ham kiradi. Agar O'zbekistonning barcha viloyatlarida dostonlar musiqasi, odatda rechitativ-deklamatsion xarakterda bo'lib, Xorazmda ular yorqin ifodali qo'shiqlar bilan farq qiladi hamda, O'zbekistonning boshqa viloyatlarida bo'lganidek, do'mbira bilan emas balki, tor, dutor, g'jjak, doira jo'riligida aytiladi. Xorazm cholg'u asboblari ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, yuqorida eslatilgan bulamon, garmon cholg'u asbobi respublikamizning faqat Xorazm viloyatida uchraydi. XIX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab bugungi kungacha Xorazmda keng foydalanilib kelinayotgan garmon ham huddi shu o'lka mahalliy uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib qoldi. Ayrim musiqa asboblarning mahalliy farqi o'z tuzilishi va tembr-akustik xususiyatlarida ko'rinadi. Masalan, Xorazm dutori kosaxonasi xajmining nisbatan kichikligi, dastasining ingichkaroq va qisqaroqligi hamda o'z akustik-tembr xususiyatlariga ko'ra O'zbekistonning boshqa lokal zonalariga, xususan, Farg'ona musiqa folkloridan o'ziga xos xarakterli belgilari bilan ajralib turadi. Bu yerda ixcham xajmli oddiy, ammo jozibador va mavzusiga ko'ra xilma-xil ashula va qo'shiqlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, xotin-qizlar ashula va qo'shiqlari mashhurdir.

Xorazm musiqa uslubida xalfalar san'ati ham diqqatga sazovordir. Xorazm xalfachilik san'ati ikki shaklda kuylanib keladi.

1. Yakkaxon ijrochilik.
2. Ansambl tarzida guruhli ijrochilik.

1. Yakkaxon xalfalar, odatda doston qo‘shiqalaridan tortib to‘y-xasham (“yor yor”, “Kelin salom”, va boshqa) qo‘shiqlarni cholg‘usiz kuylaydilar (ustozlar Roziya Matniyoz qizi, Poshsho Saidmamat qizi, Sadoqat Xudoybergan qizi va boshqa).

2. Ansamblli xalfalar lapar, yalla, o‘zlari ijod qilgan qo‘shiqlar hamda doston qo‘shiqlarini doira, garmon jo‘rligida kuylaydilar (ustoz ijrochilar Ojiza, Nazira Sobirova, Onajon Safarova, Bibi Shoira va boshqa).

#### Farg‘ona-Toshkent musiqiy uslubi

Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubida lapar, yalla, ashula, qo‘shiq, terma marosim qo‘shiqlari va katta ashula keng tarqalgan. Xotin-qizlar ijrichiligida marosim qo‘shiqlari “Yor-yor”, “Kelin salom”, lapar, yalla, aytimlari doira, dutor, cholg‘u ansambllida kuylash keng tus olgan ( uaroz ijrochilardan Raxima Mazoxidova). Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubida keng tarqalgan bolalar folklori ham asosiy o‘rinni egallaydi. Bu o‘rinda Boychechak, Yomg‘ir-yog‘aloq, Laylak keldi, Oftob chiqdi olamga, Chuchvara qaynaydi kabilar misol bo‘la oladi. Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubida keng tarqalgan katta ashula- bu yirik xajmli Ashula bo‘lib, uning kuy ohanglari keng nafasli xofizlar ijrosi uchun mo‘ljallangandir. Katta ashulani, odatda, ashulachi xofiz yoki 2-4 hamnafas ashulachi-xofizlar aytadilar. Bunda jo‘rnavor cholg‘ular qo‘llanilmaydi. Katta ashulalarda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarning falsafiy, pand-nasihatlari va boshqa mavzularda she‘riy namunalari qo‘llaniladi. Katta ashulalar ikki, ikki yarim oktava oralig‘ida bo‘lgan rivojlangan kuylarga ega bo‘lib, erkin ritm-o‘lchov asosida kuylanadi. Bu ashulalarning “Patnusaki ashula” yoki “likobi ashula” deyilishining sababi ashulachi-xofiz ijro paytida patnis likob (tarelka) ni ushlab turganligidadir. Boltaboy Rajabov, Hamroqul qori, Muhammad bobo Saggorov, Akbar qori Xaydarov, Erka qori Harimov, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov kabi katta xofizlar katta ashulalarning mahoratli ijrochilari edi. Shun ham aytish kerakki, so‘ggi yillar mobaynida katta ashulalarni cholg‘ular jo‘rligida ijro etish amaliyoti ham qo‘llana boshladi. Bu borada misol tariqasida “Mehnat axli”, “Ey dilbari jononim”, “O‘zbekistonim” nomli katta ashulalarni ko‘rsatish mumkin. Shu o‘rinda katta ashulalarni alohida cholg‘uda, masalan, nayda ijro etish an‘anasi ham yuzaga keldi. Bu o‘rinda Ismoil naychi Abduqodir naychi va Saidjon Kalononlardek maxoratli naychilarimizning xizmarlari beqiyos. Katta ashula asosan, Farg‘ona vodiysida, qisman esa Toshkentda aytilib kelinadi. Xalq hayotining tarixiy sharoiti natijasi hisoblangan barcha mahalliy uslublarda o‘zbek xalq musiqasining umummilliy belgilari yorqin ifodasini topgan.

Bu belgilar yuqorida ta‘kidlanganidek, o‘zbek xalqining keyingi davrda tugal tus olgan o‘zbek millatining shakllanish jarayonida, turli maxalliy uslublarning umummilliy madaniyati bilan birlashib ketishi natijasida vujudga keldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalliy musiqa uslublarini o‘rgatishda individual yondashuv faqatgina bilimlarni yetkazishning samaradorligini oshiribgina

qolmay, balki o'quvchilarda ijodiy fikrlash va milliy o'zlikni anglash jarayonlarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish va mos metodik materiallar bilan ta'minlash zarurligi aniqlangan.

Xulosa

Mahalliy musiqa uslublarini o'rgatishda individual yondashuv quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi:

O'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ta'lim berish.

Milliy musiqa madaniyatiga qiziqishni oshirish va uni rivojlantirish.

Musiqa ta'limi sifatini sezilarli darajada yaxshilash.

- O'qituvchilar uchun individual yondashuv bo'yicha maxsus seminar va treninglar tashkil etish.

- Mahalliy musiqa uslublarini o'rgatishga mos metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish.

- Musiqa ta'limiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldosheva.S Xalq-urf odat va an'analari T 2003
2. O'ZBEK FOLKLORI OCHERKLARI 1-TOM 1988YIL
3. Hayitova.O Xorazm qo'shiq ijrichilik an'analari Toshkent 2006 y
4. Gaziyeu, J. J. (2024). NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI. *Inter education & global study*, (5 (1)), 456-465.
5. Joraxanovich, G. J. (2023). PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MUSICAL EDUCATION. *Open Access Repository*, 9(11), 8-10.
6. Собиров, Ю. Б. (2021). МЕТОДЫ ИЗМЕРЕНИЯ КОЭФФИЦИЕНТОВ ОТРАЖЕНИЯ ЗЕРКАЛ И КОЭФФИЦИЕНТОВ ПРОПУСКАНИЯ СТЕКОЛ. *Universum: технические науки*, (10-5 (91)), 5-12.
7. Gaziyeu, J. J. (2021). VOCAL MUSIC OF UZBEK COMPOSERS. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 260-262).
8. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
9. Ахадов, Ж. З., & Абдурахманов, А. А. (2017). Теплоэнергетические параметры и балансовое распределение энергии парового котла солнечных высокотемпературных установок. *Computational nanotechnology*, (1), 71-74.
10. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
11. Шашнева, Е. Н., & Газакова, С. (2021). ОБРАЗОВАНИЕ В КУЛЬТУРЕ ТУРКМЕНИСТАНА. *Печатается по решению редакционно-издательского совета Шуйского филиала ФГБОУ ВО «Ивановский государственный университет»*, 266.

12. Akhmedov, B. (2023). THE FIRST FORMATION PROCESSES OF UZBEK VOCAL PERFORMANCE. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 126-128.
13. Syfiddinovich, A. B. (2024). MUSIQA CHOLG 'ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 92-96.
14. Sayfiddinovich, A. B. (2023). AESTHETIC EDUCATION TO STUDENTS IN MUSIC CLASSES OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS.
15. Rakhimov, I. B. (2024). WAYS TO CREATE AND USE INTERNET RESOURCES IN GEOGRAPHY LESSONS. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 595-599.
16. Rakhimov, I. B. (2024). METHODS FOR DETERMINING THE IMPACT OF LOCAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS ON HUMAN HEALTH. *MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS FOR ORGANIZING A HEALTHY LIFESTYLE AND PROPER NUTRITION*, 1(01).
17. Ikhtiyor, R. (2024). Using the Kahoot Education Platform to Create E-Learning Resources in Geography Education. *Journal of New Century Innovations*, 67(4), 19-23.
18. Baxtiyor o'g'li, R. I. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYANI O'QITISHNING ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH.
19. Абдурахмонов, Б. М. (2023). УЧЕБНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КЛУБЫ КАК МЕТОДИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА В ВУЗАХ (ИЗ ОПЫТА КЛУБА "ГЕОГРАФ-ИССЛЕДОВАТЕЛЬ"). In *Современное географическое образование: проблемы и перспективы развития* (pp. 384-389).
20. Abduraxmonov, B. M. (2023). TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARI UCHUN KARTOGRAFIK KATALOG YARATISH. *Research and education*, 2(5), 319-325.
21. Суслов, В. Г., & Абдурахмонов, Б. М. (2020). Построение урока географии на основе деятельностного подхода. *География и экология в школе XXI века*, (2), 39-42.
22. Акабоев, И. З., Хакимов, М. М., & Турдалиев, И. Э. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КАРТ В ОХРАНЕ ПРИРОДЫ И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ. *Экономика и социум*, (6-1 (109)), 593-598.